

JAMOATCHILIK NAZORATINING O'ZIGA XOSLIKHLARI XORIJ VA O'ZBEKISTON  
MISOLIDA

**Qodirova Go'zal Qodir qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada jamoatchilik nazoratining o'ziga xos xususiyatlari Germaniya, Fransiya kabi xorijiy davlatlar tajribasi hamda O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jamoatchilik nazorati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik nazorati subyektlari, jamoatchilik nazorati obyektlari.

**SPECIFICS OF PUBLIC CONTROL ON THE EXAMPLE OF KHARIJ AND UZBEKISTAN**

**Kadirova Guzal is the daughter of Kadir**

National University of Uzbekistan Faculty of Social Sciences Jurisprudence:  
direction of business law Stage 2 student

**Annotation:** the article will talk about the experience of foreign countries such as Germany, France and the work carried out in this regard in Uzbekistan.

**Keywords:** public control, self-government bodies of citizens, media, subjects of public control, objects of public control.

**ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И УЗБЕКИСТАНА**

**Кадирова Гузал Кадир кизи**

*Национальный университет Узбекистана Факультет социальных наук  
Юриспруденция: направление делового права Студент 2-го курса*

**Аннотация:** особенности общественного контроля в статье рассказывается об опыте зарубежных стран, таких как Германия, Франция, а также о проводимой в Узбекистане работе.

**Ключевые слова:** общественный контроль, органы гражданского самоуправления, средства массовой информации, субъекты общественного контроля, объекты общественного контроля.

Jamoatchilik nazorati – davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari tomonidan qonun doiralarida olib boriladigan nazorat hisoblanadi<sup>30</sup>. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 36-moddasiga muvofiq fuqarolar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratining subyektlaridir.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunida jamoatchilik nazorati obyektlari quyidagilar sifatida ko'rsatilgan:

Davlat organlarining va ular mansabdar shaxslarining:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;

fuqarolarning yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta'minlashga;

o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarini bajarishga;

davlat xizmatlarini ko'rsatishga;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihamlar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyekti<sup>31</sup>dir.

Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;

- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

- jamoatchilik muhokamasi;

- jamoatchilik eshituvi;

- jamoatchilik monitoringi;

- jamoatchilik ekspertizasi;

- jamoatchilik fikrini o'rganish;

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdar shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratining o'ziga xos institutlari yaratilgan desk xato bo'lmaydi. Birgina mahalla tizimini jamoatchilik nazorati subyekti deb oladigan bo'lsak, ular tomonidan davlat organlari mansabdar shaxslarining hisoboti va axborotini eshitish kabi shakllarda amalga oshirilishi ham jamoatchilik

<sup>30</sup> O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>

nazoratida muhim vosita. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, fuqarolar yig'ini -

har chorakda kamida bir marta fuqarolar yig'ini raisining, uning o'rribbosarlarining (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarining) va maslahatchilarining, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha komissiyalar hamda taftish komissiyasi raislarining, shuningdek hududdagi ta'lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

ichki ishlar organlari tayanch punktlari huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha inspektorlarining hisobotlarini belgilangan tartibda eshitadi;

tegishli hududda qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijo etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, shuningdek ekin maydonlaridan samarali foydalaniishi va yerlarni muhofaza qilish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijo etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishinchha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadi, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi<sup>32</sup>.

Bu birgina jamoatchilik subyekti hisoblangan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining ushbu sohadagi vakolatidir. Bundan tashqari nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari ham o'z doirasida jamoatchilik nazoratini olib boradilar. Bu borada mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda. Xususan, davlat organilari tomonidan ilgari surilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar Adliya vazirligi tasarrufidagi Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur portalga 8000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat, jumladan, 557 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 242 ta farmon, 681 ta qarori loyihalari, Vazirlar Mahkamasining 2380 ta qarori loyihalari muhokamaga qo'yilgan bo'lsa, ularga 35 000 ga yaqin takliflar bildirilgan<sup>33</sup>.

Bularga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF 5982-sonli farmoni qabul qilinganligi ham jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirishda muhim qadamlardan biridir.

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2156899>

<sup>33</sup> "Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtsida o'zaro yaqin hamkorlikni o'rnatish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tizimli davom ettirilmoqda". "Taraqqiyot strategiyasi" markazi. <https://strategy.uz/index.php?news=1194&lang=uz>

G'arb mamlakatlarida jamoatchilik nazoratining keng tarqalgan shakllaridan biri fuqarolar davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga pettsiyalar bilan murojaat qilish hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtiroki juda rivojlangan. Fuqarolar va OAV institutlari tomonidan davlat organlari faoliyati hamda hukumat harakatlari qonunga va jamoatchilik manfaatlariga to'g'ri kelish yoki kelmasligi doimiy nazorat qilib boriladi.

Germaniyada ham jamoatchilik nazorati o'ziga xos huquqiy tizimga ega. Gerbert Simon va Elinor Ostrom singari olimlar Germaniyada jamoatchilik nazoratining omillari bo'yicha izlanish qilgan huquqshunos olimlardan hisoblanadi<sup>34</sup>. Aynan ular o'z tadqiqotlarida Germaniyada davlat boshqaruv tizimida jamoatchilik nazorati juda katta ta'sir o'tkazadigan xalq nazoratining samarali usullaridan biri ekanligini ta'kidlashadi. Germaniya qonunchiligidagi o'ziga xos jamoatchilik nazorati shaklidan biri shuki, unda ko'pincha aniq belgilangan intizomiy chegaralar mavjud, bu ko'proq nemis xalqining madaniyatiga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. O'zboshimchalik va samarasiz usulda amalga oshirilgan jamoatchilik nazoratidan ko'ra, o'z fikrini bildirishdagi hamda uni talab etishdagi intizomlarini foydali deb hisoblashadi. Germaniyada 2004-yilda Bundestag huzuridagi Jamoatchilik Qo'mitasi tashkil etilgan. Jamoatchilik Qo'mitasi 20 nafar a'zodan iborat bo'lib, ular jamoatchilik kengashi umumiylay saylovlar bilan lavozimlariga tayinlanishadi. Bundestag unga kelib tushadigan iltimoslar va shikoyatlarni ko'rib chiqishi shart bo'lgan pettsiyalar bo'yicha qo'mitaga ma'lumotlarni taqdim etadi. Mazkur Qo'mitaning shikoyatlarni tekshirish bo'yicha vakolatlari federal qonun bilan tartibga solinadi.

Jamoatchilik nazorati borasida Fransiya ham o'ziga xos tarzda faoliyat olib boradi. Fransiyada 1978-yil 17-iyulda "Boshqaruv organlari va jamoatchilik bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>35</sup>gi Qonun qabul qilingan bo'lib, unda jamoatchilikka va barcha manfaatdor tomonlarga davlat organlarining faoliyati va ichki ma'muriy hujjatlari bilan tanishish huquqi kafolatlangan. Fransiyada jurnalistik tekshiruv jamoatchilik nazoratining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Jurnalistik tekshiruvlar orqali inson huquqlari va erkinliklari buzilganiga, turli sohalardagi salbiy hodisalarga jamiyatning, hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning e'tiborini qaratish ko'zda tutiladi.

Umumiy olganda jamoatchilik nazoratini o'rnatish fuqarolik jamiyatini rivojlanirishning muhim sharti hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>

<sup>34</sup> Grande, E. (2018). Verwaltung im globalen Wandel: Neue Perspektiven für die Verwaltungswissenschaft. In M.W. Bauer & E. Grande (Eds.), Perspektiven der deutschen Verwaltungswissenschaft (pp.303-334). Baden-Baden: Nomos.

<sup>35</sup> Ostrom, V. (2018) The Intellectual Crisis in American Public Administration (3rd Edition). Alabama: University of Alabama Press.

- 
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2156899>
4. "Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlikni o'rnatish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tizimli davom ettirilmoqda"."Taraqqiyot strategiyasi" markazi. <https://strategy.uz/index.php?news=1194&lang=uz>
5. URL: <http://ec.europa.eu/citizensinitiative/public/basic-facts> ( 01.01.2017.
6. Executive Power of the European Union: Law, Practices, and the Living Constitution by Deirdre Curtin, 2019.
7. Government And Society Constitutional framework <https://www.britannica.com/place/Germany/Government-and-society>
8. Ostrom, V. (2018) The Intellectual Crisis in American Public Administration (3rd Edition). Alabama: University of Alabama Press.
9. Schein, E. H. (2015). Organizational Psychology Then and Now: Some Observations. Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior, 2, 18–19.
10. Koch, R. (2013). Paradigmenentwicklung und Institutionalisierung der Verwaltungswissenschaft. In R. Koch & R. Vogel (Eds.), Paradigmenkonkurrenz im Public Management (pp. 31-55). Wiesbaden: VS Verlag für Sozialwissenschaften.
11. Ellwein, T. (2018). The History of Public Administration. H. Siedentopf (Eds.), Public Administration in French (pp. 53-55).